

О‘TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARI TAHLILI

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Usarova Laylo Ibragimova O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi Ashirova Mohinur Nazar qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi, "Ikki eshik orasi" asarining tarbiyaviy ahamiyati, asar qurilishida o‘ziga xosliklar va tahlili haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tildi

Kalit so‘zlar: Roman, asar, yozuvchi, qahramon, urush, tinchilik

ANALYSIS OR O‘TKIR HOSHIMOV’S WORK "IKKI ESHIK ORASI"**Abstract**

This article provides brief information about the educational significance of O‘tkir Hoshimov’s work "Ikki eshik orasi", peculiarities and analysis of the construction of the work

Keywords: Novel, work, writer, hero, war, peace

"Yozuvchida qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lish kerak" degan serma’no so‘zlarni aytgan O‘tkir Hoshimov oddiy bir oilada dunyoga keldi. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi davrga to‘g‘ri keldi. Bolaligini yozuvchi shunday eslaydi "O‘sha davrda non tanqis bo‘lgani bilan kutubxonalarda kitob ko‘p edi".

Kitob o‘qish barobarida u xat tashuvchi bo‘lib ishlaydi. Aynan mana shu ish O‘tkir Hoshimovni oddiy odamlarning kitobdagi hayotdan butunlay boshqa turmushiga oshno qildi.[1]

Bo‘lajak yozuvchi 1964-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limini sirdan tugatdi.

1959-1962-yillari "Qizil O‘zbekiston", 1963-1966-yi "Toshkent haqiqati" gazetalarida adabiy xodim bo‘lib ishladi. Uning kitoblari juda mazmunli, hayotiyli bilan ajralib turadi.

Yuqorida yozuvchining hayoti urush va urushdan keyingi davrga to‘g‘ri kelganligi haqida gapirib o‘tdildi. Balkim yozuvchining "Ikki eshik orasi" mana shu davr ta’sirida yuzaga kelgandir. Chunki tinchilikka rahna solgan, hammaning yostig‘ini

quritgan urushni tilga oladi. Urushning qanchalar ayanchli ekanligini, ota-onalar qalbini jarohatlaganligini, ko'ngillarga azor yetkazgani asarni o'qish davomida guvoh bo'lasiz. Go'yo voqealar ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgandek tuyuladi. Qahramonlar bilan birga yashaysiz, gohida ular bilan azob chekasiz, gohida esa xursand bo'lasiz. Chunki, asardagi har bir qahramon Qora amma, Robiya, Kimsan, Muzaffar, Ra'no, Umar zakunchi va boshqalar mahorat bilan tasvirlangan. Ayniqsa, o'zbek qizlarning ibo-xayosi, sadoqati, vafodorligi Robiya obrazi orqali ko'rishingiz mumkin. Negaki, Qora amma ya'ni onasi o'z ukasi uchun va jajjigina Muzaffarga onalik qilishi uchun Robiyani qurbon qiladi va unga sovchi bo'lib ya'ni Robiyaga tog'a bo'lgan kishiga so'raganida, Robiya es-hushidan ayriladi.

- Nimaga endi bunaqa deyapti, nimaga meni qizim deb chaqiradigan Shomurod tog'amga ravo ko'ryapti. To'g'ri urush bitganiga besh yildan oshdi. Ammo besh yil nima bo'пти? Kerak bo'lsa o'n yil yigirma yil kutaman? Umrim boricha kutaman! Mabodo Kimsan akam yo'q bo'lganida ham (o'lgan deyishga tilim bormaydi) men bormanku. Bundan chiqdi, Kimsan akam ham bor-da! Nahotki oyim umidini uzgan bo'lsa! Nahotki o'z o'g'liga atagan qizini o'zgaga ravo ko'rsa?!

Oyim ikkalamiz bir-birimizning bag'rimizga kirib o'tirar ekanmiz, shularni o'ylab ezilardim. Allaqayerda haqqush nola qiladi, shamol behi barglarini shitirlatadi. Oyim havo yetishmayotgandek xirillab nafas oladi... Ayvon burchagida Muzaffar yotibdi. Ora- chora ingraydi. Singan qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak.

- Jilla qursa shu bolaga rahming kelsa-chi, qizim. - Oyim bo'g'inlari shiqirlab o'rnidan turdi. Muzaffarning tepasiga borib, kaftini peshonasiga bosdi. - Mengayam oson tutma, jon bolam! Senga yomonlikni ravo ko'rsam, imonimdan judo bo'lay!

Bu gapni shunaqa osoyishta ishonch bilan aytdiki, ichimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi

Avvallari ham shunga o'xshagan ahvolga tushganman. Hov, o'shanda Kimsan akamni kuzatganimizdan keyin ikki oycha o'tib Ochil akadan sovchi kelganda. Yig'lab- yig'lab Kimsan akamga xat yozganimda... Kimsan akamdan xat kelmay qo'yganida... Umar zakunchi butun uy ichimizni qora yer bilan bitta qilganida... Bobom o'lganida... Urush bitib, uyga yana sovchilar qatnab qolganida... Har gal ichimdagi o'sha ip tarang tortilib, chidab bo'lmas azob berar o'zimni qo'yishga joy topolmay qolardim. Lekin o'sha ipning borligi yaxshi ekan. Azob bersa ham, jonimni sug'urib olsa ham...

Hozir... ip uzilib ketdi. Uzuldi- yu, ajab... og'riq ham sezmadim, alam ham... Vujudim bo'm- bo'sh. Jimjit.

Odam qimmatbaho narsasini yo'qotsa achinadi. Tuhmatga qolsa boshini tog'toshga uradi. Qadri yerga urilsa, isyon ko'taradi. Yaqin kishilaridan ayrilsa dod soladi... Lekin umidingdan ayrilsang g'alati bo'larkan. Hech nimaga, hech kimga, hatto

o‘z qadringga ham achinmaysan. Dod solmaysan. Isyon ko‘tarmaysan... Go‘yo sen o‘lgansan. O‘zing o‘lib, quruq surating qolgan...[2.100- bet]

Robiyaning Kimsan bilan bo‘lgan muhabbati bir guli ochilmay so‘ldi. Muhabbat inson qalbini mahf etishini, ko‘ngillarni jumbushga keltirishini, aynan Robiya va Kimsan timsolida emas, balki butun urush davridagi qurbonlar, qalbi ochilmasdan so‘lganlar, bir-birini intizor kutganlar -urush davrida bundanda dahshatli kechgan har birimiz bilamiz. Biz asarda faqatgina badiiylashganini ko‘ramiz xolos. Ayriliqlar, erta hazon bo‘lgan muhabbat, ochlik, qashshoqlik, judolik - hamma-hammasi asarda nihoyatda zo‘r tasvirlangan. Bu asarni o‘qigan kitobxon qo‘lidan qo‘ymaydi. O‘tkir Hoshimovning orzusi armonga aylanmadi, chunki uning bir orzusi bor edi: " Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlo olmay to‘lg‘onib chiqsa, oradan yillar o‘tib asarni qo‘lga qayta olganida tag‘in hayajonlansa, yangi ma‘nolar topsa. Eng katta orzuyim shu...![1.119-bet] deb yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot. (darslik) "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent, 2017
2. O‘tkir Hoshimov, " Ikki eshik orasi" romani. GLOBAL BOOKS: TOSHKENT, 2021
3. S.Ahmedov, B.Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot. (darslik) " SHARQ" nashriyoti-MATBAA aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2015